

## PROFESSOR-O'QITUVCHILAR PSIXIK HOLATINING KASBIY RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA'SIRINING EMPIRIK NATIJALARI

**A.Bozorov**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası PhD katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri empirik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda “Kasbiy charchash” diagnostikasi hamda Kettelning 16 omilli shaxs so'rovnomasi metodikalari qo'llanilib, professor-o'qituvchilarning hissiy toliqish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar reduksiyasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalarda kommunikativlik, ijtimoiy etuklik va o'zini nazorat qilish kabi shaxs xususiyatlari kasbiy charchash darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy charchash, depersonalizatsiya, psixik holat, kasbiy rivojlanish, professor-o'qituvchi, hissiy toliqish, shaxsiy yutuqlar reduksiyasi, Kettel so'rovnomasi.

**Аннотация:** В данной статье эмпирически исследовано влияние психического состояния профессорско-преподавательского состава на динамику профессионального развития. В исследовании были использованы методики диагностики профессионального выгорания и 16-факторный личностный опросник Кеттелла. Проанализированы показатели эмоционального истощения, деперсонализации и редукции личных достижений у преподавателей. Результаты показали, что коммуникативность, социальная зрелость и самоконтроль оказывают существенное влияние на уровень профессионального выгорания.

**Ключевые слова:** профессиональное выгорание, деперсонализация, психическое состояние, профессиональное развитие, профессор-преподаватель, эмоциональное истощение, редукция личных достижений, опросник Кеттелла.

**Abstract:** This article empirically investigates the influence of professors' and teachers' mental states on the dynamics of professional development. The study employed the “Professional Burnout” diagnostic method and Cattell's 16 Personality Factors Questionnaire. Indicators of emotional exhaustion, depersonalization, and reduction of personal achievements among university teachers were analyzed. The findings revealed that communicative tendency, social maturity, and self-control significantly affect the level of professional burnout.

**Keywords:** professional burnout, depersonalization, mental state, professional development, university teachers, emotional exhaustion, reduction of personal achievements, Cattell questionnaire.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlarning analitik tadqiqotlarida ham o'z aksini topmoqda. Jahon miqyosida istalgan ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlardan

tezkorlik va kam talofat bilan chiqib ketish imkoniyatlarini belgilab beruvchi bosh omillardan biri sifatida inson resurslarining rivojlanishiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Shu boisdan hozirgi kunda fan-texnologiyalarni jadal rivojlanayotgan bir davrda yuqori malakaga ega bo'lgan professor- o'qituvchilar kasbiy jihatdan yuksalishiga xizmat qiluvchi aniq o'lchovga ega bo'lgan ilmiy jihatdan asoslangan dalillar va ilmiy izlanishlarni taqozo qiladi.

Ta'lim tizimida katta islohotlar borayotgan bir vaqtda yuqori malakali professor-o'qituvchilar nafaqat o'z kasbiy bilimlariga ega bo'lishi, ularda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni rivojlantirish, insonparvarlik xarakterga ega bo'lgan pedagoglarni etishtirish lozim. Professor-o'qituvchilar o'zining kasbiy bilimlarini integratsiyalashgan holda olib borishni yo'lga qo'yishimiz zarur.

Oliy ta'limning professor-o'qituvchilari boshqa ta'limda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilardan farqlanib turadi. Oliy ta'limning professor-o'qituvchilar eng muhim hislatlari kasbiy bilimlarini oshirib borishi, o'z kasbini hurmat qilishi, kasbiga bo'lgan mehrini namoyon eta olishi, ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishini namoyon ettira olishi zarurdir.

Tadqiqot tahlillari professor-o'qituvchilaridan yuksak darajadagi talablar, majburiyatlar yoshlarga ta'lim berish maqsadidagi o'qituvchilarda hissiy charchash sindromini rivojlanish xavfi, uning ta'sirida professor-o'qituvchilar o'rtacha stressning namoyon bo'lishini namoyish etadilar deb keltirilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, professor-o'qituvchilarni psixik holatini o'rganishga harakat qildik. Keyingi bosqichlarda professor-o'qituvchilarni psixik toliqish yoki psixologik zo'riqishlarini aniqlashga qaratilgan metodikalarni natijalarini taqdim etamiz. Har qanday ta'lim turining mashaqqatli, qiyin vaziyatlarga to'la bo'lgan kasb egasining psixik holati qay darajada ekanligi, keyinchalik kasbiy rivojlanishiga ta'siri qandayligini o'rganish tadqiqot maqsadimizni ochib berishga oydinlik kiritadi. Tadqiqotlarda o'qituvchining hissiy toliqishi - bu travmatik ta'sirlarga javoban hissiyotlarni to'liq yoki qisman istisno qilish shaklida shaxs tomonidan ishlab chiqilgan psixologik himoya mexanizmining bir turidir – degan ilmiy fikrlar ham ilgari surilgan. Shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati, vazifalarni bajarishga bo'lgan ijodiylik darajasi, hamkorlik qilishga nisbatan istakning yuqoriligi kabilar kasbiy rivojlanishni tushuntiruvchi psixologik unsurlardir.

Shaxs kasbiy rivojlanishining dinamikasi rivojlanishini tadqiq etilgan ishlarni tahlil etish orqali shuni ko'rish mumkinki, kasbiy rivojlanish dinamikasi juda ham zarur, ammo kam o'rganilgan komponent hisoblanadi. "Kasbiy so'nish" metodikasi fikriy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan operatsiyalar, qarashlar, dastlabki ma'lumotlar, gipotezalar, yondashuvlarning variativligini aniqlashga yordam beradi. Metodika ham individual, ham guruhiy tarzda o'tkazilishi mumkin.

Turli yosh guruhlariga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni kasbiy charchash holati bo'yicha taqqoslash natijalarida. Professor-o'qituvchilar umumiy optimizm, o'ziga ishonch bildirgan, mavjud muammolarni hal qilishini ko'rsatib o'tsa-da, boshqa xodimlar bilan bo'ladigan munosabatda. To'g'ri inson turli vaziyatlarga tushganda, ichki dunyosida qarama-qarshi holatlarga duch keladi. Shu boisdan yaxshi ruhiy hissiy holatga erishish uchun o'zingizni nazorat qilish vosita va yo'llarini topish o'zimizni qo'limizda. Ushbu jadvalda aks etgan qiymatlar natijasida hech qanday tafovutlar farqlar aks etmadi.

### **1-jadval**

**Turli yosh guruhlariga ega bo'lgan pedagoglarni "Kasbiy "Charchash" diagnostikasi (K.Maslach, S.Jekson, N.Ye.Vodopyanova) "metodikasi shkalalari bo'yicha taqqoslash natijalari (Kruskal-Uollis H-mezoni)**

Shkalalar	Yosh guruhlari (o'rtacha ranglar)			H	p
	30 yoshgacha (N=88)	31-35 yosh (N=116)	36 yoshdan kattalar (N=66)		
Hissiy toliqish	135,58	134,60	158,17	4,139	0,126
Dipersonalizatsiya	148,99	131,67	143,41	2,561	0,278
Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi	148,05	140,45	129,38	2,102	0,350
Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari)	145,60	133,41	145,38	1,520	0,468

Qo'zg'alish kuchi shkalasi bo'yicha barcha yoshdagi professor o'qituvchilarida umumiy ko'rsatkichlar deyarli farq qilmadi. Bizga ma'lumki, qo'zg'alish kuchi me'yoridan yuqori bo'lishi asab tizimi juda sezgirli va bu kuchlidan ustunligini bildiradi. Faoliyatning ko'plab sohalari uchun asab tizimining kuch va zaiflik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. O'qituvchilarda qo'zg'alish sur'ati, uning ritmi, tashqi ta'sirlarga javob berish xususiyatlari yaxshi rivojlangan, bu sinaluvchilar yoshdagi professor-o'qituvchilar talabalarni o'qitish, dars berish ko'nikmalari shakllanmaganligidan darak bermoqda. Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o'rganish uchun unga ko'p yoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va regulativ jabhalarini hisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo'lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog'liq tomonlarini ham tadqiqotimiz doirasida o'rganish zarurdir. Tormozlanish kuchi shkalasi bo'yicha ko'rsatkich oliy ta'lim professor o'qituvchilarida tafovutlar farq qilmadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan professor o'qituvchilarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishishini tavsiflovchi har hil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi.

## 2-jadval

**“Kasbiy so'nish” diagnostikasi” va “Kettelning 16 omilli so'rovnomasi” metodikalari shkalalari o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyati (Spirman r-mezone)**

	Hissiy toliqish	Depersonaliza tsiya	Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi	Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari)
Muloqotga moyillik.	-,122(*)	-,184(**)	,054	-,087
Hissiy barqarorlik-beqarorlik.	,052	-,012	,168(**)	,151(*)
Hukmronlikka intilish-tobelik.	-,116	-,094	,105	-,013
Ijtimoiy etuklik, onglilik.	-,007	-,215(**)	,210(**)	,075
Ijtimoiy mardlik	,111	-,125(*)	-,114	-,071
Ishonuvchanlik – shubhalanish	-,082	-,067	-,028	-,057
O'ziga ishonch – ishonmaslik	,045	,065	-,074	,003
Mustaqillik – tobelik.	,009	-,113	-,140(*)	-,137(*)
O'zini nazorat qilish.	-,059	-,248(**)	-,070	-,147(*)
qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shshish	,045	,094	-,153(*)	-,032

Izoh: \*- $p < 0,05$ ; \*\* -  $p < 0,01$

Kasbiy charchash diagnostikasi va Kettelning 16 omilli so'rovnomasining shkalalari o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatida muloqotga moyillik va Depersonalizatsiya -,184\*\* tashkil etmoqda, bu kasbiy yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy moslashuvining o'ziga xosligi bilan farqlanib, atrofdagilarga hodisalarga sovuqqonlik va loqaydlik bilan qaraydilar odamovi, odamlarga nisbatan qog'ozlar bilan qiziqibroq ishlaydilar, yolg'izlikda ishlashni yoqtiradi, muloqot jarayonlarida asabiylashish va murosasizlikning kuchayishi, boshqa odamlarga nisbatan negativizmi namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Depersonalizatsiya esa oshib boradi yan o'z jamosiga ijobiy tamondan namoyon bo'ladi.

Hissiy barqarorlik-beqarorlik shkalasi bo'yicha shaxsiy yutuqlar reduksiyasi,168 (\*\*)  
ko'rsatkichni tashkil etdi. Hissiy barqarorlik-beqarorlik ortsa shaxsiy yutuqlar reduksiyasi ham ortib boradi.

Ijtimoiy etuklik, onglilik shkalasi bo'yicha ortib borishi Depersonalizatsiya o'rtasidagi bog'liqlikda -,215(\*\*) ko'rsatkichni tashkil qilgan. Depersonalizatsiya kamayib boradi ya'ni o'z xamkasblari bila munosabatlari juda yaxshi bo'ladi.

Ijtimoiy mardlik shkalasi bo'yicha Depersonalizatsiya o'rtasidagi bog'liqlikda -,125 (\*) tashkil etdi. Bunda ham ijtimoiy mardlik ortishi ikkinchi shkalamizda xususiyat kamayib borishi kuzatildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan eng yuqorisi o'zini nazorat qilish Depersonalizatsiya o'rtasidagi bog'liqlikda -,248(\*\*) ko'rsatkichga ega bo'ldi. Olib borilgan tadqiqotimizda bu ko'rsatkich Depersonalizatsiya kamayishi natijasida, muloqotlar jarayonida o'zini nazorat qilishini ta'minlashga erishdi.

Tadqiqotdagi eng yuqori bog'liqlik o'zini nazorat qilish va depersonalizatsiya o'rtasida kuzatildi ( $r = -0,248$ ;  $p < 0,01$ ). Mazkur natija o'z xatti-harakatlari va emotsiyalarini boshqara oladigan o'qituvchilarda kasbiy charchashning depersonalizatsiya komponenti sezilarli darajada past bo'lishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kommunikativ, ijtimoiy va emotsional-irodaviy xususiyatlari kasbiy charchashning namoyon bo'lish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ayniqsa, o'zini nazorat qilish, ijtimoiy etuklik va muloqotga moyillik kabi sifatlar kasbiy charchashning depersonalizatsiya komponentini kamaytiruvchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo'ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Pryezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son qarori. 2022-yil 28 yanvar.
2. Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Т.: Ёзувчи, 2001. – Б. 15.
3. Асмолов А. Г. Психология личности/А. Г. Асмолов. Москва: Смысл: Академия, 2007. 525 с. Баранов А. А. Стрессоустойчивость и мастерство педагога. Ижевск: Изд-во Удм. Ун-та, 1997.
4. Кириченко Е.Б. Важнова. О.Г. Профессиональная позиция педагога во взаимодействии с детьми – сиротами. // Ярославский педагогический вестник. – 2015 – №1 – том 2 (Психолого-педагогические науки). 2015.-С.66.
5. 5. Джеймс У. Психология / У. Джеймс. Москва: Академический проект, 2011. – 318 с.

6. Джонс Э. Жизнь и творения Зигмунда Фрейда/Э. Джонс. Москва: Гуманитарий, 1997. – 448 с.
7. Добрускин М.Е. Социально-психологический портрет вузовского педагога. – Освита. Киев. 1994. № 78-79, 80-81.
8. Дружилов С.А. Профессионализм человека как объект психологического изучения: системный подход Вестник Балтийской педагогической академии. Вып.52. Изд-во БПА, 2003(а). С.40- 46.